

Mammetova B.I.,
Shaabasova N.X.,
Jobborova M.A.,
Jumayeva Sh.B.

ZIYORAT TURIZMI VA ODOBI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI HUZURIDAGI
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**Mammetova B.I., Shaabasova N.X.,
Jobborova M.A., Jumayeva Sh.B.**

ZIYORAT TURIZMI VA ODOBI

Gid (gid-tarjimonlar) uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma



**Toshkent
2022**

UO'K: 821.512.133.09
KBK 83.3(50'zb)
M – 21

Mammetova B.

“Ziyorat turizmi va odobi” [Matn]: o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi / Mammetova B.I., Shaabasova N.X., Jobborova M.A., Jumayeva Sh.B. – T‘oshkent: “BAYOZ”, 2022. – 96 b.

Mas’ul muharrir:

K.R. Rahimov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Mualliflar:

**Mammetova B.I., Shaabasova N.X.,
Jobborova M.A., Jumayeva Sh.B.**

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma ziyorat turizmining o‘ziga xos jihatlari, ziyoratgohlarga tashrif buyurish odobi, gid, ekskursiya yetakchilarining diniy mavzularda ekskursiya olib borish texnologiyalari va ularga qo‘yiladigan kasbiy talablar hamda xizmat ko‘rsatishning halol standarti mavzularini o‘z ichiga oladi. Ushbu qo‘llanma OTM yoki kasb-hunar kollej/teknikumlarda “Gid, ekskursiya yetakchisi va gid-tarjimonlik faoliyati” yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan talabalar, ziyorat turizmi yo‘nalishida xizmat ko‘rsatuvchi gid, ekskursiya yetakchilari va soha mutaxassislari, sayyohlar, ziyoratchilar uchun zaruriy amaliy va qo‘shimcha axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Mualliflar ushbu qo‘llanmani ishlab chiqishda o‘zlarining qimmatli tavsiyalari hamda fikr-mulohazalarini bildirganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi, Xalqaro Islom Akademiyasi, O‘zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi mutaxassislariга o‘z minnatdorligichini bildiradilar.

UO'K: 821.512.133.09
KBK 83.3(50'zb)

ISBN 978-9943-6370-9-6

© B. Mammetova, 2022.
©Turizmni rivojlantirish instituti, 2022
©Институт развития туризма, 2022
©Tourism Development Institute, 2022

MUNDARIJA

KIRISH	4
I. ZIYORAT TURIZMINING MAZMUN-MOHIIYATI	
1.1. Dunyo dinlarida ziyorat va sayohatga bo‘lgan munosabat	8
1.2. Islom dinida ziyorat turizmi tushunchasi, ziyorat qoidalari va odobi	15
1.3 O‘zbekiston Respublikasi “Musulmon mehmondo‘stligi” davlat standarti	24
1.4. Ziyorat turizmining asosiy xususiyatlari	32
II. ZIYORAT ODOBI	
2.1. Tashrif buyuruvchilar uchun ziyorat odobi	40
2.2. Ziyoratchi va tashrif buyuruvchilarga tavsiyalar	45
2.3. Dunyo dinlarida ziyorat: xristianlik va buddaviylik misolida	47
III. ZIYORAT OBYEKTLARIDA EKSKURSIYA OLIB BORISHNING USLUBIIY ASOSLARI	
3.1. Ziyorat obyektlarida ekskursiya o‘tkazish texnikasi, uslublari va tarbiyaviy ahamiyati	52
3.2. Diniy ekskursiya olib borish bo‘yicha uslubiy va umumiy tavsiyalar (<i>Bahouddin Naqshband me‘moriy majmuasi misolida</i>)	56
3.3. Gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchilariga qo‘yiladigan asosiy kasbiy talablar	61
XULOSA	64
TAYANCH SO‘ZLAR VA SO‘Z BIRIKMALARI	66
ILOVALAR	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	91

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi betakror tabiati, tarixiy obidalari, o‘ziga xos madaniyati va boy qadriyatlari bilan bir qatorda tabarruk qadamjo va ziyoratgohlari bilan dunyoga ma’lum va mashhurdir. Islom olamining buyuk muhaddislari – Imom Buxoriy va Imom Termiziy, ilohiyotchi-mutakallimlar Imom Abu Mansur Moturidiy va Abu Hafs Nasafiy, fiqhshunos olimlar Burhoniddin Marg‘inoniy va Shoshiy, tasavvuf tariqati namoyandalari Abduxoliq G‘ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi ko‘plab ulamo va avliyolarning xoki poklari yotgan O‘zbekiston ziyoratgohlari mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mashhur tasavvuf ta’limoti namoyandalari dafn etilgan muqaddas maskanlarni ziyorat qilishga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga oshmoqda. Jumladan, Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston va Turkiya kabi mamlakatlarda naqshbandiya tariqatiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Shuningdek, yurtimizda IX-XII va XIV-XV asrlarda yuksak darajada rivojlangan islomiy ilmlar, shu jumladan, kalom, hadis, falsafa va mantiq kabilarga butun islom olamida bugungi kunda ham katta e’tibor beriladi.

O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixi hamda islom, xristian va budda dinlari bilan bog‘liq madaniy meros obyektlari ziyorat turizmini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Vatanimiz hududida dunyoga mashhur qadamjo va ziyoratgohlar borki, ularni ziyorat qilish islom dinida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, ziyorat turizmini yanada rivojlantirish orqali yurtimizning turizm salohiyatini yuksaltirish imkonini beradi.

Bugungi kunda yurtimizda jami 8208 ta moddiy madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan bo‘lib, shundan 4748 tasi arxeologiya, 2250 tasi arxitektura va 678 tasi monumental san’at yodgorligi, 532 tasi esa diqqatga sazovor joy sanaladi¹.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4-oktabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’ektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli Qarori. // www.lex.uz.

Yodgorliklarning 75% dan ortig‘i respublikaning markaziy turistik shaharlarida joylashgan. Turistik rekreatsion obyektlarning 114 tasi Toshkent shahrida, 118 tasi Samarqandda, 201 tasi Buxoroda va 310 tasi Xiva shahrida joylashgan bo‘lib, hozirgi kunda bu turistik resurslarning 3/1 qismigina turizm sohasida faoliyat ko‘rsatmoqda, qolganlari esa turistik infratuzilmaning shakllanishi va yangi turmahsulotlar tayyorlashni talab etadi. Jumladan, 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham yurtimizda 8000 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, turizm marshrutlariga uning atigi 500 nafari kiritilgani tanqidiy ta’kidlab o‘tildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son Farmoni hamda mazkur farmon ijrosini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 24-fevraldagi 100-son Qarorining qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu farmon va qarorlarda yurtimizda nafaqat islom dini bilan bog‘liq turizm obyektlari, balki turli xil dinlarga va madaniy, tarixiy, me’moriy, arxeologik ahamiyatga ega ziyorat maskanlariga xorijiy hamda mahalliy ziyoratchilarni jalb qilish nazarda tutilgan.

Dunyoning “Halol turizm” bo‘yicha ixtisoslashgan yetakchi tashkilotlaridan biri “Crescent Rating” 2015-yildan buyon 130 ta davlatlar orasida 40 dan ortiq mezon asosida musulmonlar sayohati indeksini tuzib kelmoqda. “Musulmon mehmondo‘stligi” reytingi natijalari esa sayohatchilarga jozibador hisoblangan davlatlarni to‘g‘ri tanlashiga yordam beradi.

Global Muslim Travel Index (GMTI) reytingini tuzishda mamlakatlarning iqlimi, xavfsizligi, iqtisodiyoti va ko‘rsatiladigan xizmatlar, musulmonlar uchun mehmondo‘st bo‘lgan mehmonxonalar,

halol taomlar, aeroport va dam olish maskanlaridagi qulayliklar, tibbiy xizmatlari, xizmatlarning mobil ilovalari hamda maxsus veb sahifalarning mavjudligi kabi omillar hisobga olinadi.

GMTIning 2019-yilda e'lon qilgan reytingiga ko'ra, O'zbekistonning Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) mamlakatlari orasida eng jozibali 10 ta mamlakat qatoriga kiritilishi dunyo hamjamiyati tomonidan yurtimizning turistik salohiyatiga berilgan yuksak bahodir (*1-rasm*)².



1-rasm. Eng jozibali deb tan olingan 10 ta mamlakatlar.

“Crescent Rating” tashkilotining taxminiy ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilga kelib ziyorat maqsadida sayohat qiluvchilarning soni 230 mln kishini tashkil etishi mumkin³. Bu esa kelajakda ziyorat turizmi jahon turizmining yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylanishi hamda mamlakatimiz uchun ham istiqbolli soha bo'lib qolishi mumkinligini ko'rsatadi. Yurtimizda islom, yahudiylik, buddaviylik dinlariga oid ziyoratgohlar hamda yodgorliklar, xristianlik diniga oid cherkov va monastirlarga 700 ming ziyoratchini jalb etish va 130 million dollar miqdoridagi xizmatlar ko'rsatish imkoniyati mavjud. Shu maqsadda

² Global Muslim Travel Index 2019. Master Card&Crescentrating, 2019.
URL: <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travelindex-2019.html>
³ <https://www.crescentrating.com>

O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy meros vazirligi, Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan 300dan ortiq madaniy meros obyekti va ziyoratgohlarini restavratsiya qilish ishlari olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ziyorat turizmining yana bir muhim jihatlaridan biri malakali gid, ekskursiya yetakchilarini tayyorlash hisoblanadi, chunki ziyorat turizmi insonning diniy qarashlari, tuyg'ulari va ruhiy holati bilan bog'liq bo'lganligi sababli ham gid, ekskursiya yetakchilaridan yuqori malakani talab etadi.

Ushbu qo'llanmada ziyorat turizmining o'ziga xos jihatlari, ziyorat odoblari, islom, xristian va buddaviylik dinlarida ziyorat masalalari keng qamrovli tadqiq etilgan. Shuningdek, diniy mavzularda ekskursiya olib borish uslublari va gid, ekskursiya yetakchilariga qo'yiladigan kasbiy talablar hamda xizmat ko'rsatishning halol standarti kabi mavzular yoritilgan bo'lib, ziyorat turizmi yo'nalishida xizmat ko'rsatuvchi gid (gid-tarjimon), ekskursiya yetakchilari uchun, shuningdek, ushbu soha mutaxassislari, sayyohlar, ziyoratchilar, xizmat ko'rsatish va servis bo'yicha mutaxassislarni tayyorlovchi kollej va OTM talabalari uchun ham zaruriy axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

“Ziyorat turizmi va odobi” [Matn]: o‘quv-uslubiy qo‘llanma /
Mammetova B.I., Shaabasova N.X., Jobborova M.A., Jumayeva Sh.B.
– Toshkent: “BAYOZ”, 2022. – 96 b.

ISBN 978-9943-6370-9-6

UO‘K: 821.512.133.09

KBK 83.3(50‘zb)

**Mammetova B.I., Shaabasova N.X.,
Jobborova M.A., Jumayeva Sh.B.**

ZIYORAT TURIZMI VA ODOBI

Muharrir	Barno Mammetova
Texnik muharrir	Madina Jobborova
Dizayner	Bahodir To‘xliyev
Sahifalovchi	Bekzod Raxmatov

Nashriyot litsenziyasi: AI №234, 11. 02. 2013.

Bosishga ruxsat etildi: 06.06.2022.

Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16.

Times garniturası. Ofset bosma.

Hisob nashriyoti t.: 3,33. Shartli b. t.: 5.

Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 20.

“BAYOZ” MChJ matbaa korxonasida
nashrga tayyorlandi va nashriyotida chop etildi.
Toshkent shahri, Lutfkor 1-tor ko‘chasi, 1-uy.

Rozilik xati

Men Mammetova Barno, quyidagi nashr etilgan “Ziyorat turizmi va odobi” o‘quv-uslubiy qo‘llanmaga hammuallifim Jumayeva Shoira Berdyairovnaga 07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olish uchun foydalanishga rozilik bildiraman.



B.I.Mammetova

Rozilik xati

Men M.A.Jabbarova, quyidagi nashr etilgan “Ziyorat turizmi va odobi” o‘quv-uslubiy qo‘llanmaga hammuallifim Jumayeva Shoira Berdyairovnaga 07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olish uchun foydalanishga rozilik bildiraman.



A handwritten signature in blue ink, appearing to be "M.A. Jabbarova", written over a horizontal line.

M.A.Jabbarova

Rozilik xati

Men N.X.Shaabbasova, quyidagi nashr etilgan “Ziyorat turizmi va odobi” o‘quv-uslubiy qo‘llanmaga hammuallifim Jumayeva Shoira Berdyairovnaga 07.00.07 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvonini olish uchun foydalanishga rozilik bildiraman.



N.X.Shaabbasova